

**2025 yilning I chorak yilligida amalga oshirilgan import hajmi hamda importni qisqartirish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar to'g'risida
MA'LUMOT**

**ИНФОРМАЦИЯ
об объемах импорта и принятых мерах по сокращению импорта
за I квартал 2025 года**

I. Kombinat tomonidan amalga oshirilgan import tahlili.

2025 yilning yanvar-mart oylarida kombinat bo'yicha mahsulot va xizmatlar importi hajmi **27,1** mln. dollarni tashkil etdi.

"Navoiy KMK" AJ ning mahsulot va xizmatlar importi tarkibi quyidagicha:

1. Butlovchilar va ehtiyyot qismlari – 22,3 mln. dollar (82,3%), shu jumladan:
 - ichki yonuv dvigatellari (*15,3 mln. dollar*),
 - kon texnikasiga ehtiyyot qismlari (*7,0 mln. dollar*).
2. Hom-ashyo va materiallar (og'ir yuk ko'taradigan kon-shaxta texnikasi uchun shinalar, oltin namunalari) – **0,5** mln. dollar (2,0 %);
3. Xizmatlar – **4,3** mln. dollar (15,7%).

Kombinatning asosiy faoliyatiga taalluqli bo'limgan, Mahalliy lashtirish dasturi doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar importi amalga oshirilmadi.

II. Kombinat bo'linmalarini quvvatlarida mahalliy lashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish.

2025 yilda mahalliy lashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan rejaga muvofiq, joriy yilning yanvar-mart oylarida 141 ta (grafik bo'yicha 141 ta) loyiha bo'yicha **349,8** mlrd.so'mlik yoki davr prognoziga nisbatan 100,3%ga mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2024 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 148,2 %ni tashkil etdi.

Xususan, dastur doirasida dozalash nasosi, havo-chang zarralarini tortish uskunasi, issiqlik almashinuv uskunasi kabi yangi turdag'i importga ta'sir qiluvchi mahsulotlar ishlab chiqarildi.

III. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperasiya aloqalarini kengaytirish va kooperasiya hisobiga importni optimallashtirish.

2025 yilning yanvar-mart oylarida sanoat kooperasiyasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan sanoat mahsulotlar hajmi **1 755,4** mlrd. so‘mni va 2024 yilning mos davriga nisbatan 121,8 % ni tashkil etdi.

Kombinat tomonidan xarid qilinishi ko'zda tutilgan, kelib chiqishi import bo'lgan tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron kooperasiya portalida to'liq o'rghanish orqali ma'lumotnomaga shakllatirilgach xaridlar amalga oshirilmoqda.

“Navoiy KMK” AJ tomonidan 2025-yil 13-14 mart kunlari Jizzax viloyatida o'tkazilgan yarmarkalarda ishtirok etdi. Ushbu hududiy yarmarkada mahsulotlarni xarid qilish bo'yicha 53,3 mlrd. so'mlik shartnomalar tuzildi.

“Navoiy KMK” AJ importni qisqartirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha ishlarni davom ettirish va xaridlar shaffofligini oshirish bo'yicha doimiy choralar ko'rilmoxda.